Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/3

Yahyobek HAYITALIYEV[a]

[a] *Chief Specialist*
Committee on Religious Affairs of the Republic of Uzbekistan
12, Alisher Navoiy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: hayitaliyev55@gmail.com

RADIKAL G‘OYALARNING YOSHLAR ONGIGA KIRIB BORISH YO‘LLARI («SOXTA SALAFIYLIK» MISOLIDA)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada «soxta salafiylik» g‘oyalarining yoshlar ongiga ta’siri va unga zamin yaratuvchi ijtimoiy-psixologik omillar – savodsizlik, psixologik ojizlik va virtual targ‘ibot tahlil qilinadi. Tadqiqotda destruktiv mafkuralarga qarshi yoshlarda tanqidiy fikrlash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda profilaktik mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar asoslangan. Maqola milliy xavfsizlikni ta’minlash va yoshlar tarbiyasi sohasidagi mutaxassislar uchun muhim metodologik manbadir.*

Shuningdek, tadqiqotda axborot makonida yoshlarning mediasavodxonligini oshirish, an’anaviy ma’rifiy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish hamda oila va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish masalalari yoritiladi. Ishda ilgari surilgan xulosalar jamiyatda ma’naviy barqarorlikni mustahkamlash, yoshlarni radikal g‘oyalar ta’siridan himoya qilish va manzilli profilaktika tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *«soxta salafiylik», axborot makoni, shaxsiy identitet, yoshlar ongi.*

THE MECHANISMS OF RADICAL IDEOLOGICAL INFLUENCE ON YOUTH (A CASE STUDY OF «PSEUDO-SALAFISM»)

Abstract. *This article analyzes the impact of «pseudo-Salafist» ideas on young people’s consciousness and the socio-psychological factors that create favorable conditions for their spread, including religious illiteracy, psychological vulnerability, and online propaganda. The study substantiates a number of scientific and practical recommendations aimed at developing critical thinking and ideological immunity among young people against destructive ideologies, as well as improving preventive mechanisms. The article serves as an important methodological resource for specialists working in the fields of national security and youth education.*

The study also addresses the importance of enhancing media literacy among young people in the digital information environment, fostering a conscious attitude toward alien and harmful ideological influences, and strengthening educational and moral approaches. Systematic cooperation among families, educational institutions, and civil society organizations is substantiated as an important condition for preventing the spread of radical ideas. The findings of the study can serve as a scientific and methodological basis for organizing targeted preventive work with young people.

Keywords: *«pseudo-Salafism», information space, personal identity, youth consciousness.*

XXI asr globallashuv jarayonida insoniyat taraqqiyotining yuksalishi bilan bir qatorda, g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar ham keskin tus oldi. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi va yoshlarning raqamli makonda faol ishtiroki radikal g‘oyalar, jumladan, soxta salafiylik kabi tahdidlarning yoshlar ongiga kirib borishini osonlashtirdi.

«Soxta salafiylik» o‘zini «sof islom»ning yagona vakili sifatida ko‘rsatishga urinish, asrlar davomida shakllangan milliy va diniy qadriyatlar, ijtimoiy-madaniy urf-odatlar, ma’naviy meroslarni inkor etish, ularni «bid’at» va «xurofot» sifatida qoralash orqali yoshlar ongida chalkashlik va ajralish kayfiyatlarini kuchaytirishga intiluvchi g‘oyaviy yo‘nalishdir.

Ushbu mafkura yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyati sust bo‘lgan, diniy bilimlari yetarli darajada shakllanmagan qatlamlarini o‘z ta’sir doirasiga jalb qilishga harakat qiladi.

Shu o‘rinda «soxta salafiylik» termini haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, aslida «salaf» so‘zi «avval yashab o‘tganlar» va «ajdodlar» degan ma’nolarni bildiradi. «Salaf» so‘zi diniy istilohda muayyan bir davr bilan bog‘liq ma’noni beradi. Payg‘ambar (s.a.v.)dan kelgan hadislarda «Eng yaxshi davr men yashagan davr, so‘ng undan keyingi va undan keyingi davrlardir»[1] deb, islomning ilk uch davri ta’kidlab o‘tilgan[2]. Shunga ko‘ra, musulmon olimlari sahobiy, tobein va tabaa tobeinlarni «solih ajdodlar» deb hisoblashda yakdil fikrdalar.

Keyingi davrlarda yashagan musulmonlarga nisbatan «salaf» yoki «salafiylar» tushunchalarini ishlatish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Aksincha, ularga «xalaf» ya’ni, keyingi kelganlar deyish to‘g‘ri bo‘ladi.

Qayd etish joizki, tarixda yashab o‘tgan ulamolarning asarlarida «salaf» so‘zi ko‘p uchraydi. Ammo bundan hozirgi davrda alohida ajralib chiqqan, o‘zlarini «salafiy» deb atayotgan toifalar nazarda tutilgan emas.

So‘nggi vaqtlarda «salafi solihlarga ergashish» iddaosi ostida o‘zlarini go‘yoki «salaflarning izdoshlarimiz» deb hisoblaydigan o‘ta mutaassib, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan soxta salafiylar paydo bo‘lganini alohida qayd etish lozim. XX asrning yirik ulamolaridan Shayx Muhammad G‘azzoliy o‘zining «Musulmonlarning yagona ma’rifiy dasturi» nomli maqolasida[3] «salafiylik» haqida shunday yozadi: «Salafiylik bu arab yarimorolining ma’lum bir joyida yashaydigan, muayyan bir ijtimoiy tarzda hayot kechiradigan odamlar guruhi emas. Biz bu tarzda tushunishni rad etamiz va unga mansub bo‘lishni inkor etamiz. Men ayrim odamlarni ko‘rdim, ular salafiylikni Ahmad ibn Hanbalning fiqhi deb tushunadilar, bu xato. Ahmadning fiqhi islom madaniyatidagi ko‘plab fikriy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u turli diyor imomlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Ba’zi odamlar salafiylikni faqat hadisga asoslangan maktab deb tushunadilar. Bu ham xato fikrdir. Chunki aqliy maktab (ra’y maktabi) ham hadis maktabi singari islomdan olingan bo‘lib, unga tayanadi. Ulardan ba’zilari o‘zlarini «ahli hadis» deb ataydilar va rivoyatlarni noto‘g‘ri tushunishlari sababli haromda fitna chiqaradilar. Hadis biror bir guruhning xususiy mulki emas, u barcha mazhablar uchun asosiy manba hisoblanadi. Ayrim odamlar ilmiy kashfiyotlarni yoqtirmaydilar va ulardan islomni himoya qilishda foydalanishni bilmaydilar. Masalan, ular televideniyeda suhbat qilishni rad etadilar. Chunki ekranda suratning ko‘rinishini harom deb biladilar. Ular astronomiya, geografiya kabi fanlarni masxara qiladilar va inkor qiladilar. Bu toifa aslida salaf ham emas, xalaf ham emas. Ularning qalblari va aqllari qayta ishlanishga muhtojdir. Ba’zi odamlar qiyin va qattiq fatvolar berishni o‘zlariga vazifa qilib olganlar. Ular odamlarga faqatgina og‘ir va mashaqqatli hukmlar chiqaradi, ularning hayotlarini qiyinlashtiradi, taraqqiyotni ortga surib, ularni qorong‘i g‘orlarga hibs etadilar. Bu toifa ham na salaf va na xalafdir. Ular din ilmlariga nisbatan nomaqbul kishilardir, ularning aksariyati vijdon va fikrda nuqsonlidir. Men aytamanki, bu salafiylik emas. Bu da’vat sohibining gapi emas, balki yo‘lto‘sarlarning fikridir. Bunday odamlarga biror bir joyda shogirdlarga islomdan dars berishlariga yoki xalqaro anjumanlar va katta jome masjidlarida va’z aytishlariga ishonch bildirish mumkin emas. Shunday kishilarni ko‘rdikki, o‘zlari hadis bilan shug‘ullanadilar, fiqhdan ma’lumotlari oz bo‘lishiga qaramay, o‘zlaridan faqih yasab olganlar. Keyin esa siyosatchiga aylanib jamiyatni va davlatni o‘zlari aytgan, o‘zlari bilgan tushunchalari asosida o‘zgartirishni da’vo qiladilar. Bunday sayoz diniy fikr egalarining eng ajablanarli tomoni shundaki, ular hukumat dasturlarini, maslahatlashuv uslublarini, moliyaviy munosabatlar, ijtimoiy adolat, yoshlar

[1] Sahihi Buxoriy, 2537-hadis.

[2] Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy. As-Salafiya marhala zamaniyya laa mazhab islamiy. – Damashq: Dor al-fikr, 2005. – B. 9.

[3] https://muslim.uz/uz/e/post/41906-salafi-solihlar-va-soxta-salafiylikning-farqlari?page=7&per-page=1

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

muammolari, oila muammolari va axloqiy tarbiya haqida hech narsa bilmaydilar. Ular madaniy hayot va moddiy taraqqiyot islom olib kelgan oliy g‘oyalar va ulug‘ maqsadlarga xizmat qilishini ham hecham idrok qilmaydilar».

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ayrim odamlar orasida hali ham bilib-bilmay soxta salafiylarning asossiz da’volari ta’sirida yurganlar, ularga taqlid qilayotganlarning mavjudligi mazkur toifaning asl mohiyatini ochib berish, uning salbiy oqibatlaridan jamoatchilikni ogohlantirib dolzarb vazifa ekanini ko‘rsatmoqda. Zotan, mamlakatimizda yoshlar jamiyatning eng faol va salmoqli qismini tashkil etadi. Shu bois, yosh avlod ongini salbiy g‘oyalardan, ekstremistik va radikal oqimlar ta’siridan asrash, ularni sog‘lom g‘oyaviy immunitet bilan qurollantirish muhim masala hisoblanadi. «Soxta salafiylik» g‘oyalarining yoshlar ongiga kirib borish mexanizmlarini tahlil qilish, unga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqish nafaqat ilmiy, balki amaliy hayot uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki yoshlar jamiyatning kelajagi, mamlakat taraqqiyotining strategik poydevoridir.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan radikal materiallar, qisqa videoroliklar, hissiyotga tayanadigan targ‘ibot shakllari yoshlar ongida o‘ziga xos «g‘oyaviy vakuum»ni paydo qilmoqda. Shu bois, «soxta salafiylik» mafkurasining yoshlar ongi va psixologiyasiga qanday yo‘llar bilan ta’sir qilayotgani, uning asosiy xavfli jihatlari, yoshlarni radikallashuv yo‘liga boshlovchi omillar va ushbu tahdidlarga qarshi jamiyatda qanday ijtimoiy-psixologik va ma’naviy immunitet mexanizmlarini shakllantirish mumkinligini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Yoshlarni ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash, ularni sog‘lom g‘oyaviy qarashlar va milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan qurollantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, psixologik va pedagogik tahlillar, davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligi «soxta salafiylik»ga qarshi kurashda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, «soxta salafiylar» yoshlar ongiga kirib borishda turli usullardan, mexanizmlardan foydalanib kelmoqda. Shuningdek, ularning zamonaviy jarayonlardan kelib chiqqan holda o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib, moslashib borayotganini ham ko‘rish mumkin.

«Soxta salafiylik» g‘oyalarining yoshlar ongiga kirib borish mexanizmlarini uch omil orqali tahlil qilish mumkin. Bu omillar quyidagilardir:

identitet inqirozi;

axborot makonidagi ekstremistik targ‘ibot;

psixologik zaiflik va diniy bilimlarning yetishmasligi.

«Soxta salafiylik»ning yoshlar ongiga kirib borishida eng muhim va xavfli omillardan biri – bu ularning identitet inqirozidir. Mazkur tushuncha, keng ma’noda, insonning jamiyatdagi o‘rni, maqsadi, qadriyatlari va ma’nosini anglashdagi qiyinchiliklar, ma’naviy bo‘shliqlar, shaxsiy va ijtimoiy kelib chiqish ziddiyatlarini anglatadi. Identitet inqirozi yuzaga kelgan shaxs o‘zining kimligi, jamiyatdagi o‘rni, e’tiqodi va hayotdagi maqsadlari borasida noaniqlik, ikkilanish va ichki ziddiyatlarni boshidan kechiradi. «Soxta salafiylik» mafkurasi esa aynan mana shu identitet bo‘shlig‘iga, ya’ni shaxsiy va ijtimoiy kelib chiqish inqiroziga duch kelgan yoshlar auditoriyasiga yo‘naltirilgan. Ular odatda an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy hayot talablari o‘rtasidagi ziddiyatni hal qila olmaydigan, milliy va diniy identitet o‘rtasidagi farqni anglab yetmagan, G‘arb va Sharq madaniy qadriyatlari o‘rtasida sarosimada qolgan, ma’naviy va moddiy ehtiyojlar o‘rtasida muvozanatni yo‘qotgan yoshlar bo‘lib, soxta salafiylik mafkurasi ularni oddiy va «haqiqiy yo‘l» va’dasi bilan o‘ziga jalb qiladi.

Taniqli psixosotsiolog E.Erikson identitet inqirozni o‘zining psixosotsial rivojlanish nazariyasida muhim tushuncha sifatida ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, identitet inqirozi – bu shaxs o‘zining kimligini aniqlashda duch keladigan ichki ziddiyat va noaniqlik holati, bu ayniqsa o‘smirlik va yosh kattalik davrida yuzaga chiqadi[4].

Erik Eriksonning fikricha, shaxsda o‘smirlik va katta yoshda yuzaga keladigan identitet inqirozi uning o‘zligini izlash jarayonidagi ichki ziddiyatdir. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, «soxta salafiylik» g‘oyalari aynan shu davrdagi yoshlarning diniy va ma’naviy identitetini buzish orqali ularda noaniqlik va ichki mojarolarni kuchaytiradi. Yoshlar o‘zlarini jamiyat va din doirasida qanday tutishni bilmay qolib, oson yo‘l sifatida qat’iy va soddalashtirilgan ekstremistik qarashlarga yopishib qoladi.

Zamonaviy sotsiolog A.Giddens esa identitet tushunchasiga doimiy ravishda qayta qurilishi va shakllantirilishi lozim bo‘lgan jarayon sifatida qaraydi. Uning fikriga ko‘ra, identitet inqirozi – bu jamiyatda yuz berayotgan tezkor o‘zgarishlar va shaxsning o‘zligini saqlab qolishdagi qiyinchiliklar

[4] Erikson, E. H. Identity: Youth and Crisis, 1968 https://www.amazon.com/Identity-Crisis-Erik-H-Erikson/dp/0393311449

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

natijasida yuzaga keladigan holat[5]. A.Giddens zamonaviy jamiyatning tezkor o‘zgarishlari sharoitida identitetni doimiy qayta qurish jarayoni deb hisoblaydi.

«Soxta salafiylik» propagandasi axborot makonida keng tarqalib, yoshlarning doimiy o‘zlik izlash jarayoniga aralashadi. Bu ularning ma’naviy barqarorligini buzib, ekstremistik qarashlarni qabul qilishga olib keladi. Ya’ni, «soxta salafiylik» ijtimoiy o‘zgarishlardan kelib chiqqan identitet inqirozining natijasidir. Identitet inqirozi yangi identitetni shakllantirish jarayonidagi muammolar sifatida ko‘riladi. Shuningdek, «soxta salafiylik» yoshlar uchun soddalashtirilgan «to‘g‘ri yo‘l»ni taklif etib, ularni tanqidiy fikrlashdan mahrum qiladi va mustaqil identitet qurilishining oldini oladi. Bu holat yoshlarning ruhiy o‘sishini to‘xtatib, ekstremistik guruhlarga jalb qilinish xavfini oshiradi.

Identitet inqirozi «soxta salafiylik» mafkurasining yoshlar ongiga kirib borishida «eshik ochuvchi» asosiy omillardan biri hisoblanadi. Uni anglash va bartaraf etish bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish radikalizmga qarshi kurashning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

«Soxta salafiylik» g‘oyalarining yoshlar ongiga kirib borishidagi muhim mexanizmlardan biri axborot makonidagi ekstremistik targ‘ibotdir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida axborot olish va muloqot qilishning eng keng tarqalgan vositasiga aylandi. Shu bilan birga, bu media makon ekstremistik g‘oyalar, jumladan, «soxta salafiylik» mafkurasini targ‘ib qilish uchun qulay zamin yaratmoqda. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, «soxta salafiylik» g‘oyalari an’anaviy diniy harakat sifatida, asosan ma’ruzalar, kitoblar va yozma manbalar orqali tarqalgan. Ammo bugungi raqamli asrda bu harakat yangi usul bilan yangicha formatlarga moslashdi. Xususan, «Qisqa video» (Short-form content) formati yo‘nalishida TikTok, Instagram Reels va YouTube Shorts kabi platformalarda 15-60 soniyalik qisqa videolar ko‘plab auditoriyani jalb qilmoqda. Masalan, «#SalafiReminder» xeshteglari ostida qisqa hadislardan boshlab, namoz o‘qish qoidalarigacha taqdim etiladi. Bu format xabarning tez yetkazilishi va ko‘plab ko‘rishlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Yana bir yo‘nalish vizual kommunikatsiya bo‘lib, yoshlar ko‘proq vizual kontentni afzal ko‘radilar. «Soxta salafiylar» vizual kommunikatsiyaning oddiylik va tez yetkazilish xususiyatlaridan faol foydalanmoqdalar. Jumladan, murakkab diniy masalalarni oddiy memlar, qisqa videolar, diagrammalar va infografikalar orqali ifodalashga harakat qilmoqdalar. Masalan, Qur’oni karim yoki hadislardan olingan, lekin kontekstdan uzilgan oyat va hadislar fonida ta’sirli grafikalar qo‘shiladi, «jihod» tushunchasiga romantik tus beriladi, urush sahnalari dramatik musiqalar bilan kuchaytiriladi, oddiy hayotdagi muammolar (ishsizlik, yolg‘izlik, ijtimoiy adolatsizlik) «haqiqiy islom yo‘liga» chaqiriq sifatida ishlatiladi, qahramonlik obrazlari yaratiladi. So‘ngra «bu qiyinchiliklarga faqat haqiqiy mo‘minlar bardosh beradi!» tarzidagi vizual va matnli xabarlar tarqatiladi.

Memlar orqali ko‘plab g‘oyalar oddiy va «hazil aralash» ko‘rinishda beriladi. Masalan, urf-odatlarni masxara qiluvchi memlar (an’anaviy bayramlarni kamsitish, diniy rasm-rusumlarni «bid’at» sifatida ko‘rsatish), «bid’at va shirk» degan yozuvlar bilan ustidan chizilgan tasvirlar bunga misol bo‘ladi.

Vizual kontentlar orqali esa «dushmanlar» ko‘rsatiladi. Ular ma’naviyat dushmanlari, «modernist» ulamolar, «saroy mullalari» yoki an’anaviy islom namoyandalari sifatida qoralanadi.

Buning natijasida yoshlar orasida tanqidiy fikrlash yo‘qoladi. Vizual kontent oddiy va hissiyotlarga tayangani uchun chuqurroq o‘ylash o‘rnini ko‘proq hissiy reaksiyalar egallaydi. Shuningdek, din haqida bir tomonlama tasavvurlar shakllanadi, faqat «soxta salafiylik» pozitsiyasi «to‘g‘ri yo‘l» sifatida ilgari suriladi, boshqa fikrlar rad etiladi. Vizual kontentlar orqali radikal g‘oyalarni «zamonaviy» va «yoshlarbop» qilish orqali ularni kengroq auditoriyaga singdirish osonlashadi.

«Soxta salafiylik» g‘oyalari targ‘ibotining muhim mexanizmlaridan yana biri psixologik zaiflik va diniy savodsizlikdir. Bugungi kunda ko‘plab yoshlar diniy-ma’rifiy bilimlarni yuzaki, qisman va noto‘g‘ri manbalardan olmoqdalar. Diniy bilimning yetishmasligi yoshlarda radikal va ekstremistik g‘oyalarga nisbatan immunitetning zaiflashishiga olib kelmoqda. Ayrim yoshlar islom haqidagi bilimlarni chuqur o‘rganmay, ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa va soddalashtirilgan, manbasi noma’lum kontentlar orqali olayotgani xavf darajasini yanada oshirmoqda. Chunki bu kontentlar ko‘pincha murakkab diniy tushunchalarni oddiylashtirgan, kontekstdan uzib olingan va noto‘g‘ri talqin qilingan bo‘ladi. Masalan, hadislar yoki Qur’on oyatlari ma’nolari kontekstdan

[5] Giddens, A. Modernity and Self-Identity, 1991 https://www.perlego.com/book/1535446/modernity-and-selfidentity-self-and-society-in-the-late-modern-age-pdf

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

chiqib, ekstremistik mafkuralarga moslashtiriladi. Natijada yoshlar orasida diniy bilimlarning tub mohiyati tushunilmasligi, noto‘g‘ri tushuncha va qarashlarning shakllanishiga olib keladi.

Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi yetarli darajada rivojlanmagani sababli, ular axborotni har doim ham tekshirish va soxta ma’lumotni ajratib olish qobiliyatiga ega emaslar. Bu holat «soxta salafiylik» targ‘ibotchilarining «haqiqiy va pok islom» degan iddaolarini qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar ko‘pincha o‘zlarini ruhiy va ma’naviy qoniqish topadigan va hayotdagi murakkabliklarga oddiy javob beradigan g‘oyalarga qaratadi. Ta’sirchan va ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan shaxslarning so‘zlariga ishonch ortadi. «Soxta salafiylik» targ‘ibotchilari o‘zlarini ishonchli diniy mutaxassis sifatida ko‘rsatib, murakkab diniy tushunchalarni soddalashtirib yetkazadi. Bu esa yoshlarning noto‘g‘ri diniy liderlarga ergashishiga sabab bo‘ladi. O‘z diniy va milliy qadriyatlarini to‘liq anglay olmagan yoshlar «soxta salafiylik» kabi «toza va haqiqiy islom» modeliga qattiq yopishib oladilar. Bu esa ijtimoiy ajralish, ekstremizm va hatto zo‘ravonlikka olib kelishi mumkin.

Yana bir muhim jihat shundaki, «soxta salafiylik» va boshqa ekstremistik mafkuralar yoshlar orasida psixologik zaiflik sharoitida osonlik bilan tarqaladi. Hayotdagi muvaffaqiyatsizliklar, ijtimoiy chetlashuv, ishsizlik va oilaviy muammolar yoshlarning ruhiy holatini zaiflashtirib, ularni radikal g‘oyalarga nisbatan sezgir qiladi. Yoshlar orasida ta’limdagi qiyinchiliklar, ish topishda duch kelinadigan muammolar yoki shaxsiy maqsadlarga erisha olmaslik kabi omillar o‘zini past baholash, ruhiy tushkunlik va umidsizlikka olib keladi. Bunday holatda radikal g‘oyalar yoshlar uchun «hayotdagi muammolarni hal qilishning oson yo‘li» sifatida ko‘rinadi.

«Soxta salafiylar» «katta haqiqatlar»ni oddiy, qat’iy va keskin tarzda taklif qilib, muammolarga tez va aniq javob topish imkonini beradi. Bu esa psixologik zaiflikka uchragan yoshlarning bunga tez ergashishiga sabab bo‘ladi. Oilaviy ziddiyatlar, ota-ona e’tiborining yetishmasligi, oilada zo‘ravonlik yoki kamsitish kabi omillar yoshlarning ruhiy barqarorligini pasaytiradi. Bu vaziyatda ular tashqi jamoalarga, jumladan, «soxta salafiylik» g‘oyalariga murojaat qilib, o‘zlarini qo‘llab-quvvatlanayotgan his qilishi mumkin. Radikal guruhlar esa o‘zini jamiyatdan ajratilgan deb hisoblaydigan yoshlarni aynan shu zaiflik nuqtasidan ushlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish, axborotni tanqidiy baholash, diniy va boshqa ijtimoiy-ma’naviy manbalarni solishtirishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Radikal va ekstremis-tik g‘oyalar ta’siridan saqlanish uchun yoshlar quyidagilarga alohida e’tibor qaratishlari zarur:

ko‘rilayotgan materialning manba va muallifiga e’tibor qaratish, undan keyin esa ushbu material bilan tanishish bo‘yicha xulosa chiqarish, o‘zida tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

mutaassib shaxslar o‘z maqsadini amalga oshirishda hatto Qur’on va hadislarni ham o‘z g‘oyalariga moslab talqin qilishini unutmaslik hamda aldanib qolmaslik;

radikal shaxslar tomonidan jamiyatdagi diniy-ijtimoiy muhit, davlat siyosati va yurt ulamolari haqida tuhmat va uydirmalar qasddan tarqatilayotganini teran anglash, xorijda yashirinib Vatanimiz to‘g‘risida ig‘vo tarqatayotgan shaxslar aslida o‘zga manfaatlarga xizmat qilishlari haqida xolis tasavvurlarga ega bo‘lish;

fuqarolarning vatanparvarligi, milliy qadriyatlar atrofida birlashishlarini tanqid qilib, go‘yoki «dinsizlikda» ayblaydigan shaxslardan saqlanish.

Shu bilan birga, media makondan unumli foydalanish, bunda yot g‘oyalar targ‘iboti bilan shug‘ullanadigan platformalardan foydalanmaslik muhim ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda to‘xtalib o‘tish lozimki, o‘zbek milliy segmentida tavsiya etilmaydigan sayt va ijtimoiy tarmoqlarning umumiy belgilari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

ekstremistik va terrorchi tashkilotlarga tegishli va ularga moyillik bildiruvchi sayt va ijtimoiy tarmoqlar;

«jihod», «shahidlik», «hijrat», «takfir» kabi tushunchalarni noto‘g‘ri talqin qiluvchi sayt va ijtimoiy tarmoqlar;

yurtimizda diniy-ma’rifiy sohada kechayotgan jarayonlarni, davlatning diniy sohadagi siyosati va yurt ulamolarining faoliyatini noxolis yoritayotgan sayt va ijtimoiy tarmoqlar;

yuklab olish mumkin bo‘lgan, ammo radikalizm va ekstremizm mazmuniga ega bo‘lgan audio, video va elektron shakldagi kitoblarni saqlovchi turli sayt va ijtimoiy tarmoqlar;

an’anaviy hanafiylik mazhabi va moturidiylik aqidasiga zid g‘oyalar targ‘ibot etilayotgan sayt va ijtimoiy tarmoqlar.

Ta’kidlash joizki, islom ta’limoti noxolis ma’lumotlar asosida fitnalarga aralashib qolishdan

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

qat'iy qaytaradi. Bu borada Qur'oni karim oyatlari, hadisi shariflar, shuningdek, ulamolarning asarlarida bir qancha dalillar mavjud. Jumladan, Hujurot surasining 6-oyatida «Ey mo'minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat yetkazib qo'yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo'lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab tekshirib ko'ringiz!», Baqara surasining 11-oyatida «Ularga: «Yer yuzida fasod (buzg'unchilik) qilmangiz!», deyilsa, ular: «Albatta, biz chin islohchilarmiz», deydilar. Ogoh bo'lingizkim, aynan ularning o'zlari buzg'unchilardir, lekin (buni o'zlari) sezmaydilar» kabi oyatlarni keltirish mumkin. Shuningdek, «Eshitgan narsasini gapiraverishi kishining yolg'onchiligiga kifoya qiladi» (Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyati), «Ilmni ishonchli zotlardan olish lozim, chunki dinning ustuni ilm bilandir. Kishi o'zining jonini ishonadigan kishigagina dinini ham ishonib topshirishi lozim» (Imom Abu Lays Samarqandiy), «Diningizni kimdan olayotganingizga qarang! Men yetmishga yaqin ulamo suratidagi kimsalarning Masjidi nabaviy ustunlari oldida: «Rasulullоh unday dedilar, bunday dedilar» deganini eshitganman. Lekin, ularning hech biridan ilmdan biror narsa olganim yo'q!» (Imom Molik) kabi naqllar ham bunga misol bo'ladi.

Jumhur ulamolarning xulosasiga ko'ra, diniy ilmlar va fatvo olishda shaxsiyat muhim hisoblanadi. Shu bois, ular ilmni internet orqali gapirayotgan, lekin aslida kimligi noma'lum shaxsdan olish mumkin emasligiga ittifoq qilganlar. Islom ta'limotida fatvoni kim yetkazayotgani muhim hisoblanadi. «Hadis aytdi, oyat keltirdi, demak unga ergashish kerak», deyilmaydi. Aksincha, fatvo berishga loyiqmi yoki yo'qmi, ishonchli ulamolardan ta'lim olganmi, dinda xolismi yoki g'arazli maqsadi bor-yo'qligi kabi mezonlar hisobga olinadi.

«Soxta salafiylik» yoshlar ongini egallashga qaratilgan xavfli mafkuraviy tahdid sifatida jamiyat barqarorligiga va milliy qadriyatlar tizimiga jiddiy zarar yetkazadi. Yoshlar orasida diniy-ma'rifiy savodxonlikni oshirish, g'oyaviy immunitetni shakllantirish, ma'naviy va ijtimoiy himoya mexanizmlarini rivojlantirish orqali soxta salafiylikka qarshi samarali kurash olib borish mumkin. Mazkur yo'nalishda davlat organlari, ta'lim muassasalari, diniy tashkilotlar va jamoatchilik o'zaro hamkorlikda ishlashi dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, «soxta salafiylik» g'oyalari yoshlar ongiga, avvalo, identitet inqirozi, internetdagi radikal targ'ibot, psixologik zaiflik va diniy bilimlarning yetishmasligi orqali kirib boradi. Shu sababli yoshlarning diniy-ma'rifiy savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va axborot manbalarini tekshirish madaniyatini shakllantirish muhimdir. Ta'lim muassasalari, diniy tashkilotlar, davlat va jamoatchilikning hamkorligi orqali yoshlarni radikal va ekstremistik g'oyalar ta'siridan himoya qilish hamda sog'lom g'oyaviy immunitetni shakllantirish mumkin.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sahihi Buxoriy, 2537-hadis.
2. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy. As-Salafiya marhala zamaniya laa mazhab islamiy. – Damashq: Dor al-fikr, 2005. 9-bet.
3. H.Ishmatbekov, Salafi solihlar va soxta salafiylikning farqlari, xta-salafiylikning-farqlari?page=7&per-page=1
4. Erikson, E. H. Identity: Youth and Crisis, 1968 https://www.amazon.com/Identity-Crisis-Erik-H-Erikson/dp/0393311449
5. Giddens, A. Modernity and Self-Identity, 1991 ntity-self-and-society-in-the-late-modern-age-pdf
6. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri/ Tarjima va tafsir muallifi A.Mansur. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012.

REFERENCES

1. Sahihi Buxoriy, 2537-hadis.
2. Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy. As-Salafiya marhala zamaniya laa mazhab islamiy. – Damashq: Dor al-fikr, 2005. 9-bet.
3. H.Ishmatbekov, Salafi solihlar va soxta salafiylikning farqlari.
4. Erikson, E. H. Identity: Youth and Crisis, 1968 https://www.amazon.com/Identity-Crisis-Erik-H-Erikson/dp/0393311449
5. Giddens, A. Modernity and Self-Identity, entity-self-and-society-in-the-late-modern-age-pdf
6. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri/ Tarjima va tafsir muallifi A.Mansur. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.